

**Davlat boshqaruvida gender tengligini ta'minlash bo'yicha ilg'or****xorijiy tajribalarning implementatsion tahlili****Boboraxmatova Malika Ulug'bek qizi**

TDYU magistranti

malikaboborakhmatova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda hozirgi kunda davlat boshqaruvida gender tengligini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarning implementatsion tahlili uni amaliyotga talqin qilishga oid ishlar tahlil qilingan. Barcha davlatlarda tobora o'zining ahamiyatini oshirib borayotgan erkaklar hamda ayollar o'rtasidagi tengsizlikni bartaraf etish uchun qonunchilik hujjatlari ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan va muhim amaliy ahamiyat kasb etuvchi takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: gender, davlat organlari, xotin-qizlar, gender huquqiy ekspertiza, gender statistikasi, demokratizm.

Gender tengligini ta'minlash bugungi davrning eng dolzarb global muammolaridan biri bo'lib, nafaqat inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biri, balki barqaror taraqqiyot, inklyuziv boshqaruv va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi asosiy mezonlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon hamjamiyatida gender tenglik siyosati davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismi bo'lib, rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ayollarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish orqali boshqaruvning samaradorligi, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik ishonchi sezilarli darajada oshadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda gender tenglikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks



islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ayollarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotda faollashtirish, ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish borasida muhim chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Biroq, gender tenglikni chuqurlashtirish, ilg‘or boshqaruv mexanizmlarini tatbiq etish va institutsional tizimlarni takomillashtirish borasida xalqaro tajribani o‘rganish va moslashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Ushbu bobning asosiy vazifasi — gender tenglikni ta‘minlash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni (jumladan, Skandinaviya mamlakatlari — Shvetsiya, Norvegiya, Daniya; shuningdek, Kanada, Fransiya, Germaniya kabi davlatlar tajribasi) tahlil qilish, ularning huquqiy, institutsional va amaliy mexanizmlarini o‘rganish hamda O‘zbekiston sharoitida implementatsiya qilish imkoniyatlarini ilmiy asosda baholashdan iboratdir.

Yevropaga to‘xtaladigan bo‘lsak, Yevropa integratsiyasi jarayonining chuqurlashuvi davlat boshqaruvi sohasida sifati yuqori, professionallikka asoslangan yangi yondashuvlarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Aholi ehtiyojlarining murakkablashuvi, boshqaruvning ochiqqligi va samaradorligiga bo‘lgan talablarning ortishi fonida Yevropa davlatlari davlat xizmatini modernizatsiya qilishga, xususan, inson resurslarini boshqarish sohasida tizimli islohotlar olib borishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Ushbu integratsion jarayonlar doirasida davlat boshqaruvi institutlari faoliyatining sifat jihatdan yangilanishi, shu jumladan, Yevropa davlat boshqaruvi maktablari faoliyatining kengayishi, davlat xizmati sohasidagi umumiy standartlarning joriy etilishi, “yagona Yevropa ma‘muriy makoni” konsepsiyasining rivojlanishi kuzatilmoqda. Bularning barchasi an‘anaviy byurokratik yondashuvdan zamonaviy, kompetensiyaga asoslangan inson resurslarini boshqarish tizimiga o‘tishni taqozo etmoqda.¹

Gender muvozanatining mavjudligi mamlakatda kutilgan natijalarning to‘liq erishilishini avtomatik tarzda ta‘minlamaydi. Ko‘plab hollarda yuqori darajadagi qaror qabul qiluvchilar o‘z faoliyatini an‘anaviy jinsiy segmentlarga bo‘lib olib, alohida ishlash

¹ Going for gender balance//Alison E. Woodward ISBN 92-871-4901-1 © Council of Europe, July 2002 Printed at the Council of Europe



shaklida davom ettirishga moyil bo'lib, bu esa turli hamkasblar bilan samarali hamkorlikni murakkablashtiradi. Natijada, boshqaruv jarayonlarida etnik va gender asosidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin. **Shvetsiyada** amalga oshirilgan bir qator loyihalar esa kundalik boshqaruv amaliyotida gender muvozanatini ta'minlashda duch kelinadigan murakkabliklarni yengish uchun innovatsion va samarali yondashuvlarni taklif etadi. Ushbu tashabbuslar gender tengligini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalarni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi va davlat boshqaruvidagi gender masalalarini hal qilishda ilg'or tajribani namoyish etadi.

Buyuk Britaniyada Leyboristlar hukumati tomonidan ilgari surilgan “Maqsad 50:50” dasturi davlat boshqaruvi sohasida gender tengligini ta'minlashga qaratilgan kompleks siyosiy tashabbus sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu dastur davlat qarorlarini qabul qilish jarayonlarining yuqori lavozimlarida ayollar va erkaklar o'rtasidagi muvozanatni yaratishni strategik maqsad qilib belgilagan. Dastur doirasida barcha davlat boshqaruvi bo'limlariga gender muvozanatini ta'minlash maqsadida kadrlar tayinlash va rivojlantirish bo'yicha aniq va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqish majburiyati yuklatildi. 1998-yildan boshlab hukumat hamda mustaqil davlat tayinlov organlari davlat xizmatida keng ijtimoiy qatlamlarni, xususan “oddiy fuqarolar” – ayollar va etnik ozchilik vakillarining sonini ko'paytirish maqsadida tizimli choralar ko'rmoqda. Ushbu strategik tashabbuslar davlat boshqaruvida inklyuzivlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, hamda gender va milliy xilma-xillikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Fransiya gender tengligini ta'minlash borasida konstitutsiyaga gender tengligi tamoyilini kiritgan ilk davlatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tamoyil ayollar va erkaklarning davlat boshqaruvida teng ishtirokini huquqiy asos sifatida mustahkamlashga qaratilgan. Biroq, gender tengligini konstitutsiyaga kiritish Frantsiyaning gender siyosatidagi faqat boshlang'ich bosqich bo'lib, ushbu huquqiy tamoyilni samarali amalga oshirish uchun keng qamrovli va integratsiyalashgan chora-tadbirlar talab qilindi. 1999-yil fevral oyida bosh vazirga taqdim etilgan “Fuqarolik sohasida yuqori lavozimlar



to'g'risida” nomli hisobot Fransiya hukumati tomonidan gender tengligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan strategik tashabbuslarning muhim hujjati sifatida e'tirof etiladi.

Xorij tajribasi va amaliyoti natijasida shakllangan fikrlarimizni umumlashtiradigan bo'lsak, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda gender tengligini yaxshilashga qaratilgan ko'plab islohotlar olib borilmoqda. Ayollarni siyosiy va iqtisodiy hayotda faollashtirish, davlat boshqaruvida ularga keng imkoniyatlar yaratish uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo hali ham gender tengligini yanada chuqurroq ta'minlash, ilg'or boshqaruv usullarini joriy etish va xalqaro tajribani o'rganib, moslashtirish zarurati mavjud. Ushbu tadqiqotda Shvetsiya, Kanada, Fransiya, Buyuk Britaniya va Belgiya kabi mamlakatlarning gender tengligini ta'minlash borasidagi ilg'or tajribalari o'rganilib, ularni O'zbekistonga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi
<https://president.uz/oz/lists/view/3851>
2. Going for gender balance Alison E. Woodward ISBN 92-871-4901-1 © Council of Europe, July 2002 Printed at the Council of Europe
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-562-son qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.